

SUKUT VA MIGRATSIYA: ABDURAZZOQ GURNANING “ADMIRING SILENCE” VA “BY THE SEA” ROMANLARIDA

Saydamatova Dilafro‘z Xamidullo qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: dilfuzsaydamatova97@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18451339>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurazzoq Gurnaning “Admiring Silence” va “By the Sea” romanlarida sukut fenomenining badiiy, narrativ va ideologik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot postkolonial adabiyot doirasida migratsiya, xotira va identitet muammolarini sukut bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan. Narratologik yondashuv asosida sukutning nafaqat travma va zulm oqibati, balki qarshilik strategiyasi sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Gérard Genette konsepsiyalariga tayangan holda romanlardagi narrativ bo‘shliqlar va kechiktirilgan hikoya usullari tahlil qilinadi. Maqola Gurna ijodida migrant tajribasining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: postkolonial adabiyot, sukut, migratsiya, narratologiya, identitet, xotira, Abdurazzoq Gurna.

Аннотация: В статье рассматривается феномен молчания в романах Абдураззока Гурны “Admiring Silence” и “By the Sea” в контексте постколониальной литературы. Основное внимание уделяется анализу молчания как следствия миграционной травмы и одновременно как формы сопротивления доминирующим дискурсам. На основе нарратологического подхода и концепций Жерара Женетта исследуются структурные и семантические функции молчания в тексте. Показано, что молчание выступает важным средством репрезентации фрагментарного и многомерного мигрантского опыта. Статья вносит вклад в изучение поэтики произведений Абдураззока Гурны.

Ключевые слова: постколониальная литература, молчание, миграция, нарратология, идентичность, память, Абдураззоко Гурна.

Abstract: This article examines the phenomenon of silence in Abdulrazzak Gurnah’s novels “Admiring Silence and By the Sea” within the framework of postcolonial literature. The study explores silence as both a consequence of migratory trauma and an active strategy of resistance to dominant discourses. Employing a narratological approach based on Gérard Genette’s theoretical concepts, the article analyzes narrative gaps, delayed disclosures, and focalization. It argues that silence functions as a central narrative device that articulates the fragmented and multidimensional nature of migrant experience. The findings contribute to a deeper understanding of Gurnah’s postcolonial poetics.

Keywords: postcolonial literature, silence, migration, narratology, identity, memory, Abdulrazzak Gurnah.

Kirish. Abdurazzoq Gurna zamonaviy postkolonial adabiyotning yetakchi namoyandalardan biri bo‘lib, uning ijodida migratsiya, surgun, xotira, identitet va madaniy begonalashuv masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Zanzibarda tug‘ilib, 1968-yilda Buyuk Britaniyaga siyosiy beqarorlik sabab ko‘chib kelgan yozuvchining shaxsiy tajribasi uning badiiy matnlarida chuqur iz qoldirgan. Gurnah romanlarida Sharqiy Afrika tarixiy-madaniy makoni va Yevropa metropoliyalaridagi postkolonial muhit o‘zaro kesishib, migrant subyektning murakkab ruhiy holatini ifodalaydi [1,124-127].

Adabiyotshunoslikda Gurna ijodi ko‘pincha migratsiya, diasporik tajriba, xotira va “uy” tushunchasi kontekstida tahlil qilingan bo‘lsa-da, *sukut (silence)* fenomeni mustaqil va markaziy tahlil obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan [2,66-70 ,413-416]. Holbuki, “Admiring Silence” (1996) va “By the Sea” (2001) romanlarida sukut nafaqat zulm va travmaning oqibati, balki qarshilik va narrativ strategiya sifatida ham namoyon bo‘ladi [3,61-65].

Mazkur maqolaning maqsadi - Gurnaning ushbu ikki romanida sukutning funksional va ideologik ahamiyatini narratologik yondashuv asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot asosan Gérard Genetning “Narrative Discourse: An Essay in Method” (1983) asariga tayangan holda olib boriladi [4, 25-30].

Adabiyotlar tahlili. Abdurazzoq Gurna ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar asosan postkolonial adabiyot doirasida olib borilib, unda migratsiya, diasporik tajriba, xotira, identitet va “uy” tushunchalari markaziy tahlil obyekti sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar Gurna romanlarini Sharqiy Afrika tarixiy-madaniy makoni hamda Yevropa postkolonial muhitidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar kesishmasida o‘rganadilar [1, 124-137].

Adabiyotshunoslikda Gurna asarlarining muhim jihatlaridan biri sifatida migratsiya tajribasining murakkabligi va uning shaxs ruhiyatiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. C. Chambers Gurna romanlarida migrant subyektning “begonalashuv”, “orasida qolish” (*in-betweenness*) holatini Britaniya jamiyatidagi irqiy va madaniy ierarxiyalar bilan bog‘lab tahlil qiladi [5, 116-123]. Uning fikricha, Gurna qahramonlari mezbon jamiyat tomonidan “boshqa” sifatida qabul qilinib, bu holat ularning nutqi, xatti-harakati va o‘zini anglash jarayonida namoyon bo‘ladi.

Sissy Helff tadqiqotlarida Gurnaning “*By the Sea*” romaniga alohida e’tibor qaratib, muhojirlik va qochqinlik masalasini “mehmondo‘stlik shartlari” (*terms of hospitality*) nazariyasi asosida izohlaydi [2, 66-75]. Helffning ta’kidlashicha, milliy identitetga asoslangan diskurslar G‘arb jamiyatlarida mehmondo‘stlik imkoniyatlarini cheklab, “Boshqa” tushunchasini mustahkamlaydi. Bu jarayonda sukut migrant qahramonlar uchun majburiy holatga aylanadi.

John Masterson Gurna ijodini xronotopik yondashuv orqali tahlil qilib, “*By the Sea*” romanidagi boarding house kabi “regulyativ makonlar”ni milliy chegaralar va ijtimoiy ierarxiyalar ramzi sifatida talqin etadi [2, 413-423]. Uning fikricha, bunday makonlar turli madaniyat vakillarini bir joyga jamlasa-da, siyosiy va iqtisodiy omillar transmilliy birdamlik imkoniyatini cheklaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda Zanzibarning ko‘p madaniyatli muhiti Gurnah asarlarining muhim konseptual asoslaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Tina Steiner Gurna romanlarida “munosabatga asoslangan identitet” (*relational identity*) tushunchasini ilgari surib, uni millatchilikka asoslangan “ildiz” identitetiga qarama-qarshi

qo'yadi [1, 124–131]. Bu yondashuv Gurna ijodida bir xillikdan ko'ra farqlilik va heterogenlik ustuvor ekanini ko'rsatadi.

Maria Olausson esa "*Admiring Silence*" romanini Hind okeani mintaqasining "yashirin tarixi" nuqtayi nazaridan tahlil qilib, Gurna matnlarida kolonial diskursning tayyor (*stock*) narrativlari ironik tarzda qayta ishlanishini ko'rsatadi [3, 60–66]. Uning fikricha, qahramon tomonidan yaratilgan hikoyalar kolonial o'tmishning sun'iy romantizatsiyasini fosh etadi.

Shunga qaramay, yuqoridagi tadqiqotlarda sukut masalasi ko'pincha ikkilamchi unsur sifatida tilga olinadi. Sukutning narrativ, strukturaviy va ideologik funksiyalari esa yetarlicha tizimli ravishda o'rganilmagan. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga intilib, Gurnaning "*Admiring Silence*" va "*By the Sea*" romanlarida sukutni zulm natijasi bo'lishi bilan birga qarshilik strategiyasi sifatida talqin qiladi.

Bu tahlilda Gérard Genetning narratologik konsepsiyalari, xususan, fokuslash, analepsiya va hikoya diskursi tushunchalari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [4, 112–277]. Aynan shu yondashuv sukut orqali yaratilgan ma'no bo'shliqlarini aniqlash va ularning ideologik yukini ochib berish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurazzoq Gurnaning "*Admiring Silence*" va "*By the Sea*" romanlarida sukut markaziy narrativ mexanizm sifatida namoyon bo'lib, u nafaqat postkolonial zulm va migratsion travmaning oqibati, balki mazlum subyekt tomonidan ongli ravishda tanlangan qarshilik strategiyasi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Bu holat Gurna ijodini postkolonial adabiyot doirasida an'anaviy "nutq orqali qarshilik" modelidan farqlovchi muhim xususiyatlardan biridir.

Narratologik tahlil natijalariga ko'ra, "*Admiring Silence*" romanida noma'lum hikoyachi tomonidan qo'llanilgan sukut strategiyasi uning individual tajribasi va ichki travmalari bilan bevosita bog'liq. Hikoyachining Britaniya jamiyatidagi irqiy va madaniy stereotiplarga nisbatan ochiq munosabat bildirmasligi tashqi darajada passivlik sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq ichki monologlar va hikoyaning bilvosita shakllari orqali u hukmron diskursni ironik tarzda fosh etadi. Shu jihatdan, sukut bu romanda ma'noni yashiruvchi emas, balki uni chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ishlaydi [3, 60–66].

Gérard Genette tomonidan ishlab chiqilgan narrativ vaqt va diskurs tushunchalari asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, roman matnida muhim voqealarning kechiktirilgan holda berilishi, ayrim epizodlarning ataylab tushirib qoldirilishi (ellips) va analepsiyalar orqali ochilishi sukutning strukturaviy ifodasini tashkil etadi [4, 112–277]. Ushbu "bo'shliqlar" o'quvchini faol talqin jarayoniga jalb etib, hikoyachining aytilmagan tajribalarini sezdiradi. Natijada sukut hikoyaning zaif nuqtasi emas, balki uning semantik tayanchiga aylanadi.

"*By the Sea*" romanida esa sukut yanada murakkab va ko'p qatlamli xarakter kasb etadi. Ikki hikoyachi - Saleh Omar va Latif Mahmud - o'rtasidagi narrativ almashinuv voqealarning nisbatan to'liqroq tasvirlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Saleh

Omarning Britaniya rasmiylari bilan muloqotda sukut saqlashi va o'z hikoyasini faqat Latif Mahmudga bayon qilishi sukutning selektiv va strategik xarakterini ochib beradi [2, 413-423]. Bu holat sukutni rasmiy hokimiyat diskursiga bo'ysunmaslikning ramziy shakli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sissy Helff tomonidan ilgari surilgan "mehmondo'stlik shartlari" nazariyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, "By the Sea" romanidagi sukut G'arb jamiyatlarining muhojirlarga nisbatan shartli va chegaralangan qabul mexanizmlariga javob sifatida yuzaga keladi [2, 66-75]. Milliy identitetga asoslangan rasmiy diskurs muhojir subyektni gapirishga majbur qilsa-da, Saleh Omarning sukuti ushbu majburiy artikulyatsiyani rad etish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ham ko'rsatadiki, Abdurazzoq Gurna romanlarida sukut va xotira o'zaro uzviy bog'liqdir. Xotira ko'pincha analepsiyalar orqali ifodalansa, sukut ushbu xotiralarning to'liq artikulyatsiyasiga to'sqinlik qiluvchi ichki va tashqi omillarni namoyon etadi. Shu orqali Gurna migrant tajribasining bir xillikdan xoli, fragmentar va ko'p yo'nalishli ekanini ta'kidlaydi [1, 124-131].

Chambers ta'kidlaganidek, Gurna qahramonlari Britaniya jamiyatida "boshqa" sifatida qabul qilinib, ularning ovozi ko'pincha e'tibordan chetda qoladi [5, 116-123]. Bunday sharoitda sukut o'zini himoya qilish va identitetni saqlab qolish vositasiga aylanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurazzoq Gurna ijodida sukut migrant subyektni passivlashtirmaydi, aksincha, uni hukmron diskursdan mustaqil ravishda o'z tarixini qayta talqin qilish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Umuman olganda, mazkur tahlil Abdurazzoq Gurna romanlarida sukutning uch asosiy funksiyasini aniqlash imkonini berdi:

1. Postkolonial zulm va migratsion travmaning natijasi sifatida
2. Narrativ tuzilmani shakllantiruvchi estetik vosita sifatida;
3. Ideologik qarshilik strategiyasi sifatida.

Bu xulosalar Abdurazzoq Gurna ijodini faqat migratsiya va diasporik tajriba bilan cheklab qo'ymasdan, uni postkolonial adabiyotdagi alternativ narrativ amaliyot sifatida baholashga asos bo'ladi.

Xulosa. Mazkur maqolada Abdurazzoq Gurnaning "Admiring Silence" va "By the Sea" romanlarida sukut fenomenining badiiy-estetik, narrativ va ideologik ahamiyatini ochib berishga qaratildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, yozuvchi ijodida sukut tasodifiy yoki ikkilamchi unsur bo'lib qolmay, balki postkolonial tajribani ifodalovchi markaziy badiiy strategiyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Gurna romanlarida sukut migrant subyektning murakkab ruhiy holati, tarixiy jarohatlari va ijtimoiy bosimlar bilan yuzma-yuz kelgan ongini ifodalashning muhim vositasiga aylanadi.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurazzoq Gurna asarlarida sukut, avvalo, mustamlakachilik merosi va migratsiya bilan bog'liq travmatik tajribalarning oqibati sifatida shakllanadi. Migrant qahramonlar mezbon jamiyatda kamsitish,

begonalashuv va identitet inqirozini boshdan kechirgan sari ularning nutq imkoniyatlari cheklanadi, bu esa sukutni muqarrar holatga aylantiradi. Shu ma'noda, sukut postkolonial subyektning ichki jarohatlari va aytilmagan tarixini ifodalovchi semantik maydon vazifasini bajaradi.

Biroq ushbu tadqiqotimizda shuni ham ko'rishimiz mumkinki, Gurna ijodida sukut faqat passivlik yoki ojizlik belgisi sifatida talqin etilmaydi. Aksincha, u ko'pincha ongli ravishda tanlangan qarshilik shakliga aylanadi. Xususan, "By the Sea" romanida Saleh Omarning Britaniya rasmiylari bilan muloqotda sukut saqlashi hukmron institutsional diskursga bo'ysunmaslikning ramziy ifodasi bo'lib, bu orqali qahramon o'z shaxsiy tarixini tashqi kuchlar tomonidan o'zlashtirilishidan himoya qiladi. Demak, sukut bu romanda faol pozitsiya va strategik tanlov sifatida namoyon bo'ladi.

Narratologik yondashuv asosida olib borilgan tahlil Abdurazzoq Gurna romanlarida sukutning matn tuzilishidagi o'rnini yanada aniqlashtirish imkonini berdi. Gérard Genette tomonidan ishlab chiqilgan narrativ vaqt, fokalizatsiya, analepsiya va ellips tushunchalari asosida aniqlanganki, matnda ataylab yaratilgan bo'shliqlar va kechiktirilgan hikoya elementlari sukutning strukturaviy ifodasini tashkil etadi. Ushbu narrativ bo'shliqlar o'quvchini faol talqin jarayoniga jalb etib, migrant tajribasining fragmentarligi va ko'p yo'nalishlilikini ochib beradi. Shu orqali Gurna stereotiplashtirilgan migrant obrazlaridan voz kechib, individual va betakror hayotiy tajribalarni ilgari suradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Abdurazzoq Gurnaning hikoya qilish amaliyoti G'arb markazli tarixiy va madaniy diskurslarga muqobil bo'lgan alternativ narrativ modelni taklif qilishini ko'rsatdi. Sukut orqali yozuvchi "boshqa" nomidan gapirishga asoslangan hukmron an'anani izdan chiqarib, migrant subyektning o'z tajribasini majburlovsiz va vositasiz ifodalash huquqini himoya qiladi. Shu jihatdan, sukut Gurna ijodida estetik vosita bo'lish bilan birga, aniq ideologik pozitsiyani ham ifodalaydi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot Abdurazzoq Gurnaning "Admiring Silence" va "By the Sea" romanlarida sukutning postkolonial zulm va migratsion jarohatlar bilan uzviy bog'liq ekanini, ayni paytda narrativ tuzilmani shakllantiruvchi muhim badiiy usul hamda hukmron diskurslarga qarshi yo'naltirilgan qarshilik strategiyasi sifatida faoliyat ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi. Ushbu xulosalar Abdurazzoq Gurna ijodini postkolonial adabiyot doirasida yanada chuqurroq talqin qilishga xizmat qilib, uning romanlarini migrant tajribasining murakkab va ko'p qirrali tabiatini yorituvchi muhim adabiy hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Steiner, Tina. "Writing 'Wider Worlds': The Role of Relation in Abdulrazak Gurnah's Fiction." *Journal of Postcolonial Writing*, vol. 46, no. 2, 2010.
2. Helff, Sissy. "Illegal Diasporas and African Refugees in Abdulrazak Gurnah's *By the Sea*." *Journal of Commonwealth Literature*, vol. 44, no. 1, 2009, pp. 66-70. // Masterson, John. "Travel and/as Travail: Diasporic Dislocation in Abdulrazak Gurnah's *By the Sea* and Kiran Desai's *The*

- Inheritance* of *Loss.*"
Research in African Literatures, vol. 41, no. 2, 2010.
3. Olausen, Maria. "The Submerged History of the Indian Ocean in Abdulrazak Gurnah's *Admiring Silence*." *English Studies in Africa*, vol. 56, no. 1, 2013, pp. 61- 65.
 4. Genette, Gérard. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Trans. Jane E. Lewin. Ithaca: Cornell University Press, 1983, pp. 25-30.
 5. Chambers, Claire. *Britain Through Muslim Eyes: Literary Representations, 1780–1988*. London: Palgrave Macmillan, 2011, pp. 116-123.
 6. Gurnah, A. *Admiring Silence*. London: Penguin Books, 1996.
 7. Gurnah, A. *By the Sea*. London: Bloomsbury Publishing, 2001.
 8. Gurnah, A. *Paradise*. London: Hamish Hamilton, 1994.
 9. Gurnah, A. *Desertion*. London: Bloomsbury Publishing, 2005.
 10. Gurnah, A. *The Last Gift*. London: Bloomsbury Publishing, 2011.
 11. Gurnah, A. *Essays on African Writing*. Vols. 1-2. Oxford: Heinemann, 1993.

